

O'ZBEK XALQ MAQOLLARI VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

**Rustamova Gulchiroy O'tkirjon qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*Xorijiy til va adabiyoti fakulteti*

*Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi K20-42*

*mirboboevamohidil858@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbek va Ingliz tilidagi maqollarning o'xshashlik jihatlari, tarbiyaviy ahamiyati, fikr-mulohaza va millatlararo tarbiyaning o'xshashlik va farqli jihatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** O'zbek tili, maqol, janr, ma'no, tarjima, tarbiya, xalq, o'sish, til.

**Abstract:** In this Article is discussed educational importance of UZBEK FOLK PROVERBS and ENGLISH FOLK PROVERBS and comparison of cultural education.

**Key words:** Uzbek language, proverb, gener, meaning, translation, education, folk, growth, language.

**KIRISH**

Maqol --- xalqlarning og'zaki ijodidir. Har bir xalqning maqollarida o'zlarining fe'l-atvorlari, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari va tabiati aks etad. Maqol ibratli so'zdir, ya'ni gapga husun beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin va ta'sirchan qiladi. SHuning uchun ham kishilar o'z nutqida maqollardan o'rinli foydalanadilar. Yozuvchi va shoirlar o'z asarlarini badiiy ta'sirchanligini oshirish uchun maqollardan keng foydalanishadi. Maqollarda avlod- ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixiy, ruhiy xolatlarini va yana etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetic shakilga kelgan. Har bir tilning ko'rkini nutqning nafosatini, xalqning ko'p asrlik hayotini bir so'z bilan ham ifodalab beruvchi maqollar mavjud.

Misol uchun: "Erta turganga xudo berar"

"Early to bad and early to rise"

Har ikki millatda ham erta uyg'ongan insonning kuni barakali bo'lishi haqida.

"You have made bed and you must lie on it".

"Har kim ekanini o'rar".

Maqollar xalq orasida juda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, baxs munozaralarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publististik adabiyotlarda doimiy ravishda qo'llanib kelingan va hozirda ham qo'llanilmoqda. Maqollar dunyo xalqlarining yillar davomida to'plagan dono xikmatlari namunalaridir deb aytsak, ham noto'g'ri bo'lmaydi. Bu sohada ish olib brogan olimlar va ularning qilgan ishlarini o'rganish maqollarimizni yanada mustahkamlaydi. Misol uchun: Mashhur ingliz folklorshunos, professor, olim Mayder maqollarni quydagicha izohlaydi.

“Proverbs are used in a wide range of situations and no limits to the use of the proverbs. They can be used to: strengthen our arguments, express certain generalizations, influence or manipulate other people rationalize our own shortcomings, question certain behavioral patterns, satirize social ills, poke fun at ridiculous situations.” Ingliz xalq maqollari ham xuddi o'zbek xalq maqollari singari g'oyat mukammal va xalq og'zaki ijodining eng sara namunalaridan biri hisoblanadi. G'arbiy Yevropa davlatlarida maqollarning keng tarqalishida “Bible” maqollar kitobini o'rni kattta, Ushbu kitob ingliz xalq maqollarini o'zida jamlagan bo'lib, aynan qadimgi davrdagi ajdodlar tomonidan aytilgan maqollar keltirilgan.

O'zbek folklorshunoslida maqolga adabiy nuqtai-nazardan qiziqish asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlaydi. Xususan, Markaziy Osiyoda folklorshunos olimlar juda ko'p. Masalan: Yusuf Hos Xojib, Ahmad Yassaviy, Gulxaniy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlarini o'qib o'rganayotganimizda ularning tarkibida qanchadan- qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan esa o'zgargan xolda mavjudligiga ishonch xosil qilishimiz mumkin.

### **MUHOKAMA:**

Qaysi til, qaysi xalqning maqollarini taqqoslasak ham, ularda o'zaro o'xshashlik, sezilarli fikirlarni ko'rishimiz mumkin. Chunki tarbiya masalasi qaysi din, qaysi xalq, qaysi millat bo'lishidan qat'iy nazar, bir -biriga juda o'xshashdir. Bolalar har bir oilada deyarli bir dek tarbiyalanadilar. Lekin, dinlarning turfa xilligi, millatning erki o'zgachalaigi o'zaro farqlarni keltirib chiqaradi. Hozir bir qator ingliz va o'zbek maqollarini tahlil qilamiz.

“A dog in the monger” “Bo'ynidan baylagan it ovga yaramaydi”,

“To err is human” “Beayib parvardigor”

“Talking mends no hole” “Ko'p gap eshakka yuk”

“A cat in the glove can catch no mice” “Bo'zchi belboqqa yalchimaydi”

“The bird does what it sees in its nest” “Qush uyasida ko'rganini qiladi”

“The nearer the church, the father from God” maqolini o‘zbek tiliga tarjima qilsak “Cherkovga yaqinlashgani sari xudodan uzoqlashan” ma’nosini beradi. Bu o‘zbek tilida “Besh vaqt namozni tark etgan, xarom xarishni farq emas” maqoli orqali ifodalanadi.

Xulosa:

Yuqorida biroz maqollarni tahlil qildik. Ammo diniy, madaniy axloqiy bir biriga o‘xshash, ayniqsa o‘zbek va ingliz maqollarida solishtirib tahlil qilishga arzigulik maqollar behissob edi. Har bir xalqning folklorshunosligi hisoblanmish maqol janeriga nazar tashlar ekanmiz biz bu janrning naqadar beqiyos va maftunkor ekaniga guvoh bo‘lamiz. Xulosa qilib aytganda qasi til madaniy bo‘lishidan qat’iy nazar maqollar juda chuqur ma’noli, boy janr ekanligini tan olmay ilojimiz yo‘q.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Raymond "Naprijionnost v poslovitsah 1956
2. Khakimov.K.B. {2020} The subject and place of Toponymics in the system of sicences of education.
3. Usmonova.G {2020} Borrowing of English vocabullory and their distinitive features.
4. O‘zbek xalq maqollari T.Mirzayev A.Musaqulov {2005}
5. <https://en.wikipedia.org/wiki/proverb>
6. Kun.uz.